

OLY HAMSHIRALIK ISHI DASTURI BITIRUVCHILARI KASBIY FAOLIYATINING SIFAT VA SAMARADORLIGI TAHLILI VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

SULAYMONOVA RUXSORA OYDIN QIZI

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Oliy hamshiralik ishini tashkil etish va boshqarish yo'nalishi 2-kurs magistranti

sulaymonovar07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oliy ma'lumotli hamshiralarni tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va bitiruvchilarning faoliyatini tahlili hamda takomillashtirish masalalarini o'rganish ishlari olib boriladi. Shuningdek, ta'lim sifatini oshirish hamda bo'lajak hamshiralarni kasbiy kompetensiyalar asosida tayyorlashning rivojlanish istiqbollari ko'rib chiqilgan. Oliy ma'lumotli hamshiralarni ishi dasturi bitiruvchilari kasbiy faoliyati zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar hamda adabiyotlarni tahlil qilish, va umumlashtirish usullari asosida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Oliy hamshiralik ishi, bitiruvchilar, samaradorlik, kasbiy faoliyat, ishga joylashish.

KIRISH

Hozirgi kunda Oliy hamshiralik ishi dasturi bitiruvchilari kasbiy faoliyatining sifat va samaradorligi tahlili hamda uni takomillashtirish masalalari dolzarb bo'lgan muammolardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda tibbiyot xodimlari, xususan, yuqori malakali hamshiralar tayyorlashga talab keskin ortib bormoqda. Bu jarayon aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji, profilaktik salomatlik xizmatlarining kengayishi hamda birlamchi bo'g'in tibbiyotini optimallashtirish bilan chambarchas bog'liq. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning sog'liqni saqlash tizimi haqida bildirgan fikr va nutqlari ko'pincha islohotlar, tibbiy xizmat sifati, kadrlar tayyorlash va aholi salomatligini yaxshilashga qaratilgan. Prezidentimiz ko'plab nutqlarida sog'liqni saqlash tizimini xalq manfaatlariga xizmat qiladigan tizimga aylantirish kerakligi va yuksak ma'naviy madaniyatga, ijodiy faolikka ega bo'lgan jamiyatda erkin fikrlay oladigan va o'z vazifalarini mustaqil hal qila oladigan kadrlarni tayyorlash, shuningdek, har tomonlama yetuk, mukammal bilimga ega barkamol avlodni tarbiyalash-zamon talabi ekanligi haqida takidlab o'tadilar. Bunga isbot tariqasida Davlatimiz rahbari o'z murojaatnomasida shu mazmunda bayon qilgan edi. Kelgusi

yildan barcha tibbiyot oliygohlarida oliy hamshiralik ishi yo'nalishi ochiladi va kvota 2karra, 2027-yildan esa kamida 20 foizdan oshirib boriladi.¹

Ta'lim va amaliyot o'rtasidagi uzviy hamkorlik mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi oliy hamshiralik ishi dasturi bitiruvchilarining kasbiy faoliyatga muvaffaqiyatli moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida o'zlashtirilgan nazariy bilimlar amaliyot bazalarida to'liq mustahkamlanmasligi, klinik amaliyot jarayonida talaba, o'qituvchi va amaliyot rahbarlari o'rtasidagi hamkorlikning sustligi natijasida bitiruvchilarda mustaqil klinik qaror qabul qilish, bemorlarni kompleks parvarishlash, jamoa bilan samarali ishlash hamda zamonaviy tibbiy texnologiyalardan foydalanish kompetensiyalari yetarli darajada shakllanmaydi. Natijada yosh mutaxassislar ish faoliyatining dastlabki bosqichida kasbiy moslashuvda qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa tibbiy xizmat sifati va bemor xavfsizligiga ham ta'sir etishi mumkin.

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida oliy ta'lim muassasalari va sog'liqni saqlash tashkilotlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur. Buning uchun:

- klinik bazalar bilan uzoq muddatli hamkorlik shartnomalarini takomillashtirish;
- har bir talabaga malakali klinik mentor (preceptor) biriktirish;
- nazariy mashg'ulotlarni klinik vaziyatlar va simulyatsion ta'lim bilan integratsiya qilish;
- ish beruvchilar ishtirokida o'quv dasturlarini muntazam qayta ko'rib chiqish;
- bitiruvchilarning ish faoliyatiga moslashuvini 6–12 oy davomida monitoring qilish va ish beruvchilar fikri asosida ta'lim dasturlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning asosiy vazifalari qatoriga ta'lim va amaliyot integratsiyasini takomillashtirish orqali bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish masalalari kiradi.

Oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishishimiz uchun quyidagi vazifalarni bajarish kerak:

1. Ta'lim va klinik amaliyotning uzviyligini baholash hamda mavjud muammolarni aniqlash.
2. Oliy hamshiralik ishi bitiruvchilarining kasbiy kompetensiyalarini baholash mezonlarini takomillashtirish.
3. Ta'lim va amaliyot integratsiyasini kuchaytirishga qaratilgan samarali modelni ishlab chiqish.
4. Taklif etilgan modelning bitiruvchilar faoliyati sifati va samaradorligiga ta'sirini baholash.

ASOSIY QISM

¹ Mirziyoyev Sh.M Sog'liqni saqlash xodimlari bilan ochiq muloqotida-Toshkent 2025y

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishni ta'minlovchi metodlar jumlasiga adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish metodlari kiradi. Foronda va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda virtual simulyatsiya texnologiyalarining hamshiralik ta'limidagi o'rni va samaradorligi o'rganilgan. Mualliflarning ta'kidlashicha, virtual simulyatsiya zamonaviy hamshiralik ta'limida innovatsion pedagogik yondashuv sifatida rivojlanib bormoqda va undan foydalanish samaradorligini ilmiy asoslash zarurati mavjud. Tadqiqotning asosiy maqsadi virtual simulyatsiyaning hamshiralik yo'nalishi talabalarining o'quv natijalariga, jumladan, bilim, klinik ko'nikmalar va amaliy tayyorgarlik darajasiga ta'sirini aniqlashdan iborat bo'lgan.² Bundan tashqari Tamilselvan va hammualliflar tomonidan 2023-yilda amalga oshirilgan tizimli sharhda bakalavriat hamshiralik talabalarini tajribasida simulyatsion ta'limning o'rni tahlil qilingan. Tadqiqotda simulyatsion ta'lim talabalarga nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlar bilan bog'lash, klinik ko'nikmalarni mustahkamlash va o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish imkonini berishi aniqlangan. Mualliflar yuqori darajadagi simulyatsiya (high-fidelity simulation) va virtual simulyatsiya usullaridan foydalanish talabalarni real klinik muhitga tayyorlashda samarali ekanligini ko'rsatgan. Shuningdek, simulyatsion ta'lim orqali talabalar bemor bilan muloqot qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish va kasbiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishi qayd etilgan. Ushbu natijalar oliy hamshiralik ta'limi dasturlarida simulyatsion texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi.³

Reebals C., Wood T. va Markaki A. o'z tadqiqotlarida yangi bitirgan hamshiralarning kasbiy faoliyatga moslashish jarayonini o'rgangan. Mualliflarning fikricha, oliy hamshiralik ta'limidan keyingi amaliy faoliyat bosqichi hamshiralarning klinik kompetensiyasi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va kasbiy ishonchini shakllantirishda muhim davr hisoblanadi. Tadqiqotda yangi mutaxassislariga mentorlik yordami, hissiy qo'llab-quvvatlash va tizimli moslashuv dasturlarini tashkil etish ularning ish faoliyati sifatini oshirishi hamda kasbiy stressni kamaytirishi aniqlangan. Mualliflar ushbu yondashuvlar hamshiralarning kasbiy faoliyatda uzoq muddat samarali ishlashini ta'minlash va bemorlarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini yaxshilashda muhim omil ekanligini ta'kidlagan.⁴

² Foronda C., Fernandez-Burgos M., Nadeau C., Kelley C.N., Henry M. *Virtual Simulation in Nursing Education: A Systematic Review Spanning 1996 to 2018*. *Simulation in Healthcare*. 2020. Vol. 15, No. 1. P. 46–54.

³ Tamilselvan C., Chua M.S., Chew S.J., Han H., Devi M.K. *Experiences of simulation-based learning among undergraduate nursing students: A systematic review and meta-synthesis*. *Nurse Education Today*. 2023. Vol. 121. Article 105711. DOI: 10.1016/j.nedt.2023.105711.

⁴ Reebals C., Wood T., Markaki A. *Transition to Practice for New Nurse Graduates: Barriers and Mitigating Strategies* // *Western Journal of Nursing Research*. — 2022. — Vol. 44, №4. — P. 416–429. — DOI: 10.1177/0193945921997925. — PMID: 33724088.

Ta'lim yo'nalishi	Mazmuni	Amaliy ahamiyati
Nazariy bilimlarni shakllantirish	Hamshiralik asoslari, klinik fanlar va tibbiy bilimlarni o'zlashtirish	Kasbiy faoliyat uchun mustahkam bilim bazasini yaratadi
Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish	Klinik mashg'ulotlar, bemor parvarishi va muolajalarni bajarish	Nazariy bilimlarni real ish jarayonida qo'llash imkonini beradi
Simulyatsion ta'limdan foydalanish	Klinik vaziyatlarni modellashtirish, trenajyor va virtual texnologiyalar orqali mashq qilish	Xatolarsiz tajriba orttirish, klinik fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi
Nazariya va amaliyot integratsiyasi	O'quv jarayonida bilim, amaliyot va simulyatsion mashg'ulotlarni uyg'unlashtirish	Bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi va mustaqil ishlash qobiliyatini oshiradi
Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish	Muloqot, jamoada ishlash, bemor xavfsizligi va professional mas'uliyatni shakllantirish	Sifatli va samarali tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, oliy hamshiralik ta'limida nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar va simulyatsion usullar bilan birlashtirish bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bunday yondashuv talabalarning klinik fikrlashi, amaliy ko'nikmalari va real ish faoliyatiga tayyorgarligini oshiradi.

XULOSA

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda oliy hamshiralik ta'limida nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar va simulyatsion usullar bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv talabalarning klinik fikrlashi, amaliy ko'nikmalari va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, bemor xavfsizligi, muloqot va jamoada ishlash kompetensiyalarini shakllantirish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish oliy hamshiralik ishi bitiruvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorgarligini yanada takomillashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Foronda CL, Fernandez-Burgos M, Nadeau C, Kelley CN, Henry MN. Virtual Simulation in Nursing Education: A Systematic Review Spanning 1996 to 2018. Simul

Healthc. 2020 Feb;15(1):46-54. doi: 10.1097/SIH.0000000000000411. PMID: 32028447.

2. Tamilselvan C., Chua M.S., Chew S.J., Han H., Devi M.K. *Experiences of simulation-based learning among undergraduate nursing students: A systematic review and meta-synthesis. Nurse Education Today.* 2023. Vol. 121. Article 105711. DOI: 10.1016/j.nedt.2023.105711.

3. Reebals C, Wood T, Markaki A. Transition to Practice for New Nurse Graduates: Barriers and Mitigating Strategies. *West J Nurs Res.* 2022 Apr;44(4):416-429. doi: 10.1177/0193945921997925. Epub 2021 Mar 16. PMID: 33724088.

4. Исраилова, Н. Р. Совершенствование качества оказания сестринской помощи с учётом профессиональной подготовки медсестёр / Н. Р. Исраилова, Г. Б. Мамедова, А. А. Акбарходжаев, Ч. К. Собирджанова // Апробация. – 2015. – № 3 (30). – С. 18–19.

5. **Internernet manbalari:**

www.ziyonet.uz,

www.sestra.ru,

www.tma.uz,

PubMed — National Library of Medicine:

<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/33724088/>